



Sevara **BOZOROVA**,
Doctoral student Karshi State University
E-mail: s.bozorova@mail.ru

Under the review of associate professor NamSTU P.Batirova

TRADE-RELATED LINGUOCULTURAL UNITS AND THEIR CULTURAL CONNOTATIONS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article presents a comparative analysis of idioms, phraseological units, and cultural concepts found in the trade lexicon of English and Uzbek. Furthermore, figurative expressions used in trade and economics are analyzed in relation to the cultural traditions and communicative practices of both languages.

Key words: Trade lexicon, idiom, phraseological unit, cultural concept, metaphor, connotation, linguoculturology.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SAVDO SOHASIGA OID LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR VA ULARDAGI MADANIY KONNOTATSIYALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi savdo leksikasida uchraydigan idiomalar, frazeologik birliklar va madaniy konseptlar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, savdo va iqtisod sohasida qo'llaniladigan obrazli ifodalar ikki tilning madaniy an'analari va kommunikativ odatlariga ko'ra tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Savdo leksikasi, idioma, frazeologik birlik, madaniy konsept, metafora, konnotatsiya, lingvokulturologiya.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В СФЕРЕ ТОРГОВЛИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ КУЛЬТУРНЫЕ КОННОТАЦИИ

Аннотация

В данной статье проводится сопоставительный анализ идиом, фразеологических единиц и культурных концептов, встречающихся в торговой лексике английского и узбекского языков. Кроме того, образные выражения, используемые в сфере торговли и экономики, рассматриваются с учётом культурных традиций и коммуникативных практик двух языков.

Ключевые слова: Торговая лексика, идиома, фразеологическая единица, культурный концепт, метафора, коннотация, лингвокультурология.

Kirish. Savdo leksikasi tilshunoslikda alohida ahamiyatga ega, chunki u nafaqat iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydi, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlarini va kommunikativ odatlarini ham aks ettiradi. Shu sababli savdo sohasiga oid frazeologik birliklarni o'rganish lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va semantika uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi savdo leksikasida uchraydigan idiomalar, frazeologik birliklar hamda madaniy konseptlarning qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi. Tadqiqotning maqsadi – ushbu birliklarning milliy-madaniy omillar bilan uzviy bog'liqligini aniqlash, ularning semantik talqinini ochib berish va madaniy konnotatsiyalarini ikki til misolida qiyoslashdir. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarida savdo sohasida faol qo'llaniladigan obrazli ifodalar, turg'un birikmalar va konseptual birliklar tanlab olindi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, savdo leksikasida uchraydigan obrazli ifodalar va madaniy konseptlar tarjima amaliyotida, ikki tili lug'atlar tuzishda, shuningdek, ingliz va o'zbek tillarini o'qitish jarayonida lingvokulturologik yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Savdo leksikasi nafaqat sohaga oid tushunchalarni, balki xalqning madaniy merosi, urf-odatlarini va ijtimoiy hayotini ham o'zida mujassam etadi. Lingvokulturologik yondashuvda bunday birliklar xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va turmush tarzini aks ettiruvchi madaniy belgilangan leksik qatlam sifatida qaraladi. Oybek Ahmedov ta'kidlaganidek, "stilistik birliklar insonning hayotiy

kuzatishlari natijasida paydo bo'lib, moddiy dunyodagi ma'lum tushunchani obrazli, his-hayajonli ifoda etadi"[1]. Bu fikrni savdo leksikasiga ham to'liq tatbiq etish mumkin, chunki bozor, savdo-sotiq jarayonlari doimo milliy ijtimoiy-madaniy hayotning markazida bo'lgan. Masalan, bozor kuni birikmasi o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri bozor ochiladigan yoki eng gavjum bo'ladigan kun ma'nosini bildiradi, ammo xalq tilida ko'pincha yakshanba kunini anglatadi. Bu holatning sababi shundaki, o'zbeklar yashaydigan ko'plab hududlarda an'anaviy ravishda haftaning yakshanba kuni katta bozor yoki yarmarka tashkil etilgan. Qishloq va shahar aholisi o'sha kuni savdo qilish, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlarni xarid qilish uchun yig'ilgan. Shu bois bozor kuni tushunchasi asta-sekin haftaning yakshanba kuni bilan sinonim sifatida ishlatila boshlagan. Demak, bu birikma faqat iqtisodiy faoliyatni emas, balki aholining turmush tarzi va ijtimoiy odatlarini ham ifodalaydi va shu jihati bilan savdo leksikasining lingvokulturologik qatlamiga kiradi.

O'zbek tilida savdo leksikasidagi ayrim birliklar milliy madaniyat va urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ma'nosi odatda faqat shu madaniy kontekstda to'liq anglashiladi. Masalan, savdolashmoq so'zi nafaqat narx ustida kelishish jarayonini, balki o'zbek bozor madaniyatidagi ijtimoiy muloqot va insonlar o'rtasidagi samimiy aloqani ham ifodalaydi. Ko'p hollarda bu xaridor va sotuvchi o'rtasida o'ziga xos odat bo'lib, kelishuvdan zavqlanishni bildiradi.

Pishiqchilik bozori esa odatda hosil mo'l bo'lib, narxlar maqbul darajada pasaygan davrdagi savdo muhitini ifodalaydi.

Bu birlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan bog'liq mavsumiy bozor madaniyatiga taalluqlidir. Shuningdek, barakasini bersin iborasi xarid-sotuv jarayonida aytiladigan, xarid qilingan tovar foyda keltirsin, savdo samarali bo'lsin degan tilakni bildiradi. Shu kabi birliklar o'zbek savdo tilining lingvokulturologik boyligini namoyon etadi.

Ingliz savdo leksikasidagi ayrim birliklar ham milliy madaniyat va urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bevosita tarjima qilinganda yaxlit ma'nosini yo'qotishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi bargain so'zi oddiy savdolashishni emas, balki chegirma asosida qulay narxda xarid qilish jarayonini anglatadi. Shuningdek, Black Friday atamasi AQSH va boshqa G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan yirik chegirmali savdo kunini bildiradi. Bu atama o'zbek madaniyatida bevosita muqobilga ega emas, balki izohlovchi tarjima talab qiladi.

Window shopping birikmasi xaridorning do'kon peshtaxtalarini tomosha qilib yurishi, ammo xarid qilmasligini bildiradi. Bu hodisa odatda dam olish, vaqt o'tkazish yoki kelajakdagi xaridlarni rejalashtirish bilan bog'lanadi. Yuqoridagi kabi birliklar savdo leksikasining lingvokulturologik qatlamini tashkil etib, til orqali milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlari aks ettiradi.

Demak, ingliz va o'zbek tillaridagi savdo leksikasining lingvokulturologik qatlamini o'rganish nafaqat semantik tahlil, balki xalqning iqtisodiy hayoti va madaniy qadriyatlari o'rtasidagi uzviy aloqalarni ochib berishga imkon beradi. Bu yondashuv savdo sohasiga oid birliklarning tarjima amaliyotida ekvivalent topish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega, chunki har bir iboraning ortida ma'lum madaniy konsept va tarixiy kontekst mavjud.

Idiomalar – bu barqaror birikmalar bo'lib, ularning ma'nosi tarkibiy qismlarining yig'indisidan anglashiladi. Savdo sohasi ham o'ziga xos idiomatik ifodalar orqali tilning obrazlilik darajasini ko'rsatadi.

Ingliz tilida:

to drive a hard bargain – og'ir shartlar asosida kelishuvga erishmoq

cash cow – barqaror daromad keltiruvchi loyiha yoki soha

in the red / in the black – zarar yoki foydada bo'lish

O'zbek tilida:

bozori chaqqon yoki savdosi qizg'in bo'lmoq – talab katta bo'lmoq

savdosi yurishmay qolmoq – xaridor yo'q, iqtisodiy faoliyat sust

zarariga sotmoq – narxni ancha pasaytirib sotmoq

Barakasini ko'rmoq iborasi o'zbek savdo leksikasida ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, xarid qilingan mahsulot yoki amalga oshirilgan savdo bitimidan foyda va muvaffaqiyat topishni anglatadi. Bu ibora ko'pincha xariddan keyin yoki savdo faoliyati jarayonida, natija muvaffaqiyatli bo'lishini ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur birlik o'zbek xalqining savdoga nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy nuqtai nazardan ham qarashini aks ettiradi. Chunki baraka so'zi diniy-madaniy qadriyatlarda mo'l-ko'llik, to'kinlik va halollik bilan bog'langan tushunchadir.

Narxini tushirmoq iborasi esa savdo jarayonida kelishuv natijasida tovar yoki xizmatning narxini pasaytirishni anglatadi. Bu ibora odatda savdolashmoq fe'li bilan semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, aniqroq harakatni bildiradi. Mazkur birlik savdo madaniyatida xaridor va sotuvchi o'rtasidagi muloqotning muhim elementlaridan biri sifatida qaraladi. Cruse ta'kidlaganidek, idiomalarga elementar leksik birliklar sifatida qaraladi. Garchi ular bir nechta so'zlardan tashkil topsa-da, bitta so'zga xos ichki yaxlitlik darajasini namoyon etadi. Idiomalar odatda o'z qismlarining tartibini o'zgartirish yoki

ularni boshqa so'zlar bilan almashtirishga qarshilik ko'rsatadi[2]. Bu sintaktik cheklovlarning ayrimlari semantik sabablar bilan izohlanadi. Masalan, to drive a hard bargain yoki to corner the market kabi savdo idiomalari tarkibidagi bargain va market so'zlari idioma ichida o'zining oddiy lug'aviy ma'nosida ishlatilmaydi. Shu bois ularni so'zma-so'z almashtirish, tarjima qilish yoki grammatik jihatdan qayta tartiblash idioma mazmunini yo'qotadi.

Ingliz tilidagi savdo idiomalari ko'proq moliyaviy-huquqiy kontekstlarga, o'zbek tilidagilari esa og'zaki muloqot va hayotiy kuzatishlarga asoslanadi. Bu esa ikki tildagi madaniy yondashuvlarning farqini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy-nazariy asos sifatida bir qator tilshunos olimlarning izlanishlari va tadqiqotlari ko'rib chiqildi. Ingliz tilshunosligida David Alan Cruse'ning "Lexical Semantics" asari leksik birliklarning semantik munosabatlari va idiomatik xususiyatlarini tahlil qilishda metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.[3] Yana bir asosiy manba Rosamund Moon'ning "Fixed Expressions and Idioms in English" asari bo'lib, ingliz tilidagi idiomalar, turg'un birikmalar va boshqa frazeologik birliklarni korpus lingvistikasi asosida o'rganadi. Muallif ularning semantik tuzilishi, qo'llanish chastotasi, funksional vazifasi va madaniy konnotatsiyalarini tahlil qiladi[4].

O'zbek tilshunosligida esa Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" asari frazeologik birliklarning semantik tuzilishi va milliy xususiyatlarini o'rganishda asos bo'ladi[5]. Bundan tashqari, Oybek Ahmedovning ingliz tili iqtisodiyot terminologiyasida leksik-semantik xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy maqolalari ham savdo sohasi terminlari va idiomalarini tahlil qilishda nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

Natijalar va muhokama. Har bir til savdo faoliyatini o'ziga xos madaniy konseptlar orqali ifodalaydi. Bu konseptlar faqat leksik darajada emas, balki ijtimoiy ong va xalqning iqtisodiy hayotiga ham bog'liq. Ingliz tilida trade konsepti ko'proq tizimli, korporativ, qonun asosidagi jarayon sifatida ko'rinadi. O'zbek tilida esa savdo ko'pincha insoniy aloqalar, savdolashish va ishonch asosidagi faoliyat sifatida qabul qilinadi.

O'zbek va ingliz tillarida iqtisodiyot terminologiyasini qiyosiy tahlil asosida o'rgangan Oybek Ahmedov tildagi milliylik va uning tarjimaga ta'sirini quyidagicha baholaydi: "Obrazli vositalarning bir tildan boshqa tilga tarjima qilinishi asnosidagi qiyinchiliklar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri tilning milliyligi, unga xos axloqiy va madaniy qadriyatlarining mavjudligidir"[6]. Masalan, o'zbek tilidagi savdolashmoq fe'li ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri muqobilga ega emas, chunki bu jarayon o'zbek mentalitetida ijtimoiy yaqinlik, munosabat o'rnatish vositasi sifatida qaraladi. Ikki tildagi savdo leksikasi o'z madaniy konteksti bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, ularning tarjimasida muammolar yuzaga chiqadi. Masalan, ushbu gaplar semantik jihatdan o'xshash, lekin madaniy jihatdan o'zbek tilida bu ijobiy baho sifatida qabul qilinadi:

He's good at bargaining. → U savdolashishda mohir.

Frazeologik birliklar milliy tafakkurni aks ettiruvchi lingvistik hodisalardan biridir. Ular madaniy xotirani saqlovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Frazeologik ma'no – bu barqaror birikma asosida ifodalangan axborot va qo'shimcha ma'no bo'yoqdorligidan iborat bo'lib, u obrazlilik bilan leksik ma'nodan farq qiladi[7]. Savdo leksikasida bunday frazeologik birliklar, masalan, savdo qizidi, narx osmoga chiqdi kabi iboralar so'zning bevosita lug'aviy ma'nosidan tashqari qo'shimcha obrazlilik va ifoda kuchini beradi.

Ingliz va o'zbek tillarida savdo sohasiga oid ayrim iboralar mazmun jihatdan o'zaro mos tushunchalarni

ifodalaydi, biroq ularning semantik talqini va qo'llanilishida madaniy farqlar seziladi. Masalan, ingliz tilidagi trade secrets iborasi tijorat sirlari ma'nosida bo'lib, korxonalar yoki tadbirkorning raqobatchilardan sir tutilishi kerak bo'lgan maxfiy ma'lumotlarini anglatadi. Bu ibora rasmiy-huquqiy sohada keng qo'llaniladi. To cut a deal esa kelishuv tuzmoq degan ma'noni beradi va savdo-sotiq yoki biznes muzokaralarida tomonlar o'zaro manfaatli shartnoma tuzganini bildiradi.

Aleksandr Vladimirovich Kunin o'zining "Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika" asarida biz o'rganayotgan sohaga oid bir nechta frazeologik birliklarni sharhlaydi[8]. Masalan, to cut one's coat according to one's cloth – daromad va imkoniyatlarga mos yashashni ifodalaydi. To keep one's head above water – iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay o'zini ushlab turish, qarzga botmaslik holatini bildiradi. To make both ends meet – daromad va xarajatlarni muvofiqlashtirish ma'nosini bildirib, o'zbek tilidagi u oydan bu oygacha uchma-uch yashamoq birikmasiga to'g'ri keladi. To save for a rainy day – kelajakdagi og'ir kunlar uchun mablag' jang'arish, o'zbek tilidagi qora kunga asrab qo'yimoq iborasiga mos keladi. Savdo va iqtisod leksikasida bu kabi misollar iqtisod qilish, moliyaviy ehtiyotkorlik mazmunlarini ifodalovchi metaforik birliklar hisoblanadi.

Bundan tashqari, ingliz tilida iqtisodiy faoliyatga oid salbiy yoki ehtiyotkorlikni ifodalovchi boshqa frazeologizmlar ham uchraydi. Masalan, to sell a pup – aldab qimmatbaho deb ko'rsatilgan, aslida esa qadrsiz tovarni sotish ma'nosini bildiradi. Bu birlik savdoda firibgarlik va ishonchni suiiste'mol qilish holatini anglatadi. To tighten one's purse strings – mablag' sarflashni keskin kamaytirmoq, tejamkor bo'lmoq ma'nolarida ishlatiladi. To pay through the nose – biror narsaga haddan tashqari ko'p pul to'lash ma'nosida bozordagi adolatsiz narx yoki majburiy ortiqcha xarajatni bildiradi.

Kunin ta'kidlaganidek, bunday frazeologik birliklar nafaqat bevosita iqtisodiy mazmunga ega, balki ular orqali jamiyatning moliyaviy ehtiyotkorlik, iqtisodiy xavfsizlik va bozordagi adolat haqidagi madaniy qarashlari ham ifodalanadi. Shu bois ularni ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy-lingvokulturologik tahlil qilish ikki xalqning iqtisodiy madaniyatidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilida ham savdo sohasida uchraydigan bir qator frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular asosan og'zaki nutqqa xos. Masalan, bozor qilib kelmoq iborasi xarid qilish jarayonini bildiradi va kundalik nutqda, ko'proq maishiy kontekstdagi savdo faoliyatini anglatadi. Bozorbop narx esa bozorga mos, maqbul narx degan ma'noda ishlatiladi va mahsulotning xaridor uchun qulay hamda bozordagi talabga mos narxda sotilayotganini ifodalaydi. Foydaga yurmoq iborasi esa daromad keltira boshlamoq ma'nosida bo'lib, savdo yoki boshqa iqtisodiy faoliyat natijasida kutilgan foydaning oshganini anglatadi.

Bu iboralar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi ifodalar ko'proq rasmiy va xalqaro savdo-sotiq jarayonlariga oid bo'lsa, o'zbek tilidagi birliklar asosan kundalik hayot, bozor muomalalari va xalq tiliga xos obrazlilikni o'zida mujassam etadi. Shu tariqa, har ikki til savdo leksikasida iqtisodiy faoliyatning turli darajalarini aks ettiruvchi, ammo milliy madaniyat va tajriba bilan boyigan iboralarni yaratadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, savdo sohasi leksikasi nafaqat so'z darajasida, balki frazeologik, idiomatik va madaniy qatlamlarda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz va o'zbek tillaridagi savdo leksikasi semantik jihatdan ko'p hollarda o'xshash bo'lsa-da, madaniy asoslar, uslubiy ko'lam va frazeologik ifoda vositalari sezilarli farqlarga ega. Shuning uchun bu sohada tarjima, terminologik muvofiqlik va leksik tahlillar lingvokulturologik yondashuv asosida olib borilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ахмедов О. С. Инглиз тили иқтисодиёт терминологиясида соматик ва зоономик компонентли терминларнинг таржимадаги лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбекистонда хорижий тиллар: илмий-методик электрон журнал. – 2018. - № 4 (23). – 142-б.
2. Cruse D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 37.
3. Cruse D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 p.
4. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 338 p.
5. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.
6. Ахмедов О. С. Инглиз тили иқтисодиёт терминологиясида соматик ва зоономик компонентли терминларнинг таржимадаги лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбекистонда хорижий тиллар: илмий-методик электрон журнал. – 2018. - № 4 (23). – 142-б.
7. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 8.
8. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд. – Москва: Высшая школа, 1996. – 200 с.